

LINGVISTIKANING OG‘ZAKI KOMMUNIKASIYANI TASHKIL QILISH VA RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

Sarvinoz Narzulloyevna Oripova

“Alfraganus University” is non-governmental higher education institution, a senior teacher of the department “Foreign Philology”

sarvinozoripova54@gmail.com

+998770150645

Annotasiya: *Ushbu annotasiyada lingvistikaning og‘zaki muloqotni shakllantirish, rivojlantirish va samarali axborot almashinuvini ta‘minlashdagi o‘rni har tomonlama yoritiladi. Lingvistika inson nutqining tuzilishi, ma‘no uzatish mexanizmlari, madaniy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq qonuniyatlarni o‘rganish orqali muloqot jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi. Fonetika, leksikologiya, sintaksis va pragmatika kabi bo‘limlar nutq ravonligi va tushunarligini ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Globallashuv va raqamlashuv davrida til birliklarini to‘g‘ri tanlash, madaniy xilma-xillikni inobatga olish va nutqiy kompetensiyani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Annotasiyada ta‘lim, tarjima, ommaviy axborot vositalari va xizmat ko‘rsatish sohalarida lingvistik bilimlarning amaliyotdagi qo‘llanilishi misollar bilan asoslanadi. Umuman olganda, ushbu tadqiqot lingvistikaning og‘zaki muloqot samaradorligini oshirishdagi ulkan ahamiyatini namoyon etadi.*

Kalit so‘zlar: *Lingvistika, og‘zaki kommunikasiya, nutq madaniyati, intonasiya, strategiya, til tuzilishi, sosiolingvistika, muloqot.*

Аннотация: *В данной аннотации раскрывается ключевая роль лингвистики в формировании, развитии и повышении эффективности устной коммуникации. Лингвистика способствует качественному обмену информацией благодаря изучению структуры речи, механизмов передачи смысла, а также культурных и социальных факторов, влияющих на общение. Такие разделы, как фонетика, лексикология, синтаксис и прагматика, играют решающую роль в обеспечении плавности, ясности и точности устной речи. В условиях глобализации и цифровизации особое значение приобретает правильный выбор языковых средств, учет культурного разнообразия и развитие коммуникативной компетенции. В аннотации также приводятся примеры применения лингвистических знаний в образовательной сфере, переводческой деятельности, медиа и сервисных услугах. В целом, исследование подчёркивает важность лингвистики в повышении эффективности устного общения и улучшении взаимопонимания между собеседниками.*

Ключевые слова: Лингвистика, устная коммуникация, культура речи, интонация, стратегия, строение языка / языковая структура, социолингвистика, общение

Abstract: This annotation outlines the essential role of linguistics in shaping, developing, and enhancing oral communication processes. Linguistics contributes to effective information exchange by examining the structure of speech, mechanisms of meaning transmission, and cultural and social factors influencing communication. Core branches such as phonetics, lexicology, syntax, and pragmatics play a decisive role in ensuring fluency, clarity, and accuracy during interaction. In the context of globalization and digital transformation, the appropriate selection of linguistic means, awareness of cultural diversity, and development of communicative competence are becoming increasingly significant. The annotation also provides examples of practical applications of linguistic knowledge in education, translation, media, and customer-service sectors. Overall, the study demonstrates the crucial importance of linguistics in improving the effectiveness of oral communication and fostering better mutual understanding.

Keywords: Linguistics, oral communication, culture of speech, intonation, strategy, language structure, sociolinguistics, communication

Kirish

Ogʻzaki kommunikasiya insonlarning kundalik hayotida eng asosiy muloqot turlaridan biridir. Unda his-tuygʻular, fikrlar, gʻoyalar va axborot bevosita til vositasida etkaziladi. Ushbu jarayonning toʻgʻri tashkil qilinishida lingvistikaning oʻrni beqiyosdir. Chunki til tuzilishi, uning qoidalari, intonasiya, uslub va kommunikativ strategiyalar aynan lingvistika tomonidan oʻrganiladi.

Lingvistikaning asosiy vazifalari va ularning ahamiyati

1. Til tuzilishi va normalarini belgilash

Lingvistika nutq jarayonidagi grammatik qoidalar, fonetik xususiyatlar va leksik birliklarni oʻrganib, ularning toʻgʻri qoʻllanilishi uchun asos yaratadi. Masalan:

- tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish,
- soʻzlarni kontekstga mos tanlash,
- grammatik shakllardan toʻgʻri foydalanish.

Bu omillar muloqot samaradorligini oshiradi va notoʻgʻri tushunish ehtimolini kamaytiradi.

2. Kommunikativ strategiyalarni oʻrganish

Shuni taʼkidlash kerakki odamlar turli vaziyatlarda turlicha gapiradilar. Rasmiy, norasmiy, hamkorlikka asoslangan yoki bahs-munozaraga qaratilgan nutq strategiyalari

mavjud. Lingvistika ushbu strategiyalarni o'rganib, ulardan foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi.

Misol: o'qituvchi talabalarga tushuntirishda sodda va aniq nutq qo'llaydi; diplomat muloqotda ehtiyotkor, to'g'ridan-to'g'ri emas, yumshoq jumlar ishlatadi.

3. Intonasiya va nutq ritmini o'rganish

Intonasiya his-tuyg'u va munosabatni bildirishda muhim o'rin tutadi. Bir xil gap intonasiyaga qarab turli ma'no kasb qilishi mumkin. Lingvistika bu jarayonni tahlil qilib, nutqni ravon va ta'sirchan qilish imkonini beradi.

4. Ijtimoiy tilshunoslik (sosiolingvistika)

Eng muximi jixati shundan iborat ki odamlarning yoshi, jinsi, ta'lim darajasi, joylashuvi va madaniyatiga qarab nutqiy muhit o'zgaradi. Lingvistika ushbu farqlarni o'rganib, muloqotni mos holda tashkil qilishga yordam beradi.

Masalan:

- kattalar bilan gapirish uslubi;
- hamkurslar bilan so'zlashuv uslubi;
- ishda rasmiy nutq qoidalari.

Lingvistikaning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati

1. Ta'limda — o'quvchilar va talabalarning nutq madaniyatini shakllantiradi.
2. Media va jurnalistikada — aniq, ta'sirli va ishonchli matn yaratishni ta'minlaydi.
3. Ish jarayonida — muzokara, taqdimot va muloqot sifatini oshiradi.
4. Tarjimada — ma'noni to'g'ri va nozik etkazish imkonini beradi.
5. Madaniy muloqotda — turli millatlar o'rtasidagi tushunish jarayonini osonlashtiradi.

Lingvistika va og'zaki kommunikasiyaning o'zaro bog'liqligi

Og'zaki muloqotning samaradorligi tilning tuzilishi, qoidalari, kontekst, intonasiya va ijtimoiy omillarning to'g'ri tushunilishiga bog'liq. Shuning uchun lingvistika:

- nutqning mazmuniy aniqligini ta'minlaydi,
- muloqotdagi psixologik barerlarni kamaytiradi,
- tinglovchi va nutqlovchi o'rtasidagi o'zaro tushunishni yaxshilaydi.

Misollar: "Keling, bu masalani birgalikda ko'rib chiqaylik" — hamkorlik nutqi.

- "Iltimos, hujjatni vaqtda topshiring" — rasmiy muloqot.
- "Vo, juda yaxshi ekan-ku!" — emosional og'zaki nutq.

Bugungi kunda muloqot jarayonining ahamiyati va uni qanday tezlashtirish mumkin

Bugungi raqamlashuv va globallashtirish davrida muloqot jarayoni jamiyatning barcha jabhalarida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Noto'g'ri tushunish, nutqdagi aniqsizlik yoki madaniy farqlar sabab yuzaga keladigan muammolar ish jarayoni, ta'lim, tibbiyot, diplomatiya va xizmat ko'rsatish sohalarida jiddiy to'siqlarga aylanishi mumkin. Shu

bois lingvistik savodxonlik va ogʻzaki muloqotning shakllanish jarayoni bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir. Til birliklarini toʻgʻri qoʻllash, ravon nutq, mazmunni aniq ifoda etish va madaniy omillarni hisobga olish insonlar oʻrtasida tez va samarali hamkorlikka zamin yaratadi.

-Madaniyatlararo muloqotni oʻrganish – turli millat va madaniyatlarning nutq uslubi, ishoralari va munosabatini bilish.

-Raqamli platformalardan toʻgʻri foydalanish – audio, video va matnli muloqotda aniq, qisqa va tushunarli ifoda.

-Tinglash koʻnikmalarini kuchaytirish – suhbatdoshni toʻliq eshitish va anglash tez va samarali javob qaytarishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xasanova N. "Zamonaviy lingvistika asoslari". Toshkent, 2020.
2. Saidov Sh. "Nutq madaniyati va kommunikasiya". Samarqand, 2018.
3. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press.
4. Brown G., Yule G. Discourse Analysis. Cambridge University Press.
5. Holmes J. An Introduction to Sociolinguistics. Routledge.